eng asosiy masalaga e'tibor qaratishadi hamda savdolashishni bilishadi va yaxshi ko'rishadi. Ba'zi paytlarda o'z maqsadlariga erishish uchun shunday qat'iyat bilan harakat qilishadiki, hatto tajovuzkor va qo'pol bo'lib ko'rinishadi. Amerikaliklar ommaviy axborot vositalarini hurmat qilish ruhida tarbiyalangan, shu bois muzokaralar chog'ida matbuot bilan muloqotga katta e'tibor berishadi. Germaniya vakillari muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishga katta e'tibor qaratib, o'z pozitsiyalarini puxtalik bilan ishlab chiqishadi. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilgandan keyingina muzokaralarga kirishadilar. Muzokaralarda nemislar tizimli va barcha tafsilotlarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqqan holda, birin-ketin, oldindan kelishilgan kun tartibiga muvofiq ravishda masalalarni muhokama qilishni afzal ko'radilar. Ular muzokaralarni to'g'ri, o'z vaqtida olib boradilar va qoidalarga qat'iy rioya qiladilar. Nemislarning barcha takliflari aniq va ishbilarmonlikka xosdir. Nemislar muzokaralarga juda jiddiy yondashadilar va o'zlarining xatti-harakatlarida yumor va hazillarga yo'l qo'ymaydilar. Nemislarga qaror qabul qilish uchun ko'proq vaqt kerak, chunki ular barcha mumkin bo'lgan variantlarni tekshirib ko'rib, har tomonlama tahlil qiladi. Ular qarorni qabul qilingandan keyin uni o'zgartirishni yoqtirmaydilar. Nemislar ularni amalga oshirishning keng qamrovli kafolatlarini olmasalar, shartnomani imzolamaydilar. Ular erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda nihoyatda aniq va sinchkovlik bilan yondashadi va hamkorlaridan ham shuni talab qiladilar. Britaniyaliklarning fikricha, muzokaralardagi sherikning o'z pozitsiyasiga qarab, eng yaxshi yechim topiladi. Shu bilan birga, ular yetarlicha moslashuvchan va qarama-qarshi tomonning tashabbusiga bajonidil javob berishadi. Shuningdek, britaniyalik hamkorlar bilan muzokaralar puxta tayyorgarlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Inglizlar muzokaralarni muhokama mavzusi bilan emas, balki kundalik muammolar (ob-havo, sport va boshqalar) bilan boshlashni xush ko'radilar. Ingliz vakillari ochiqchehra va xushmuomala bo'lsa ham, biroq qonunlarga qat'iy va so'zsiz rioya qilishadi. Inglizlar o'z manfaatlarini mohirlik bilan va samarali himoya qiladilar. Ingliz muzokarachilarining kuchi shundaki, ularning mamlakat, mavzu va muhokama qilinayotgan muammolar haqida mukammal bilimlaridir. Ular juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. Shu bois, muzokaralardagi vaziyatni sinchkovlik bilan tahlil qilib, prognozlar tuzishga qodir. Inglizlar uchun o'tkir burchaklardan qochish qobiliyati an'anaviy qobiliyatlardan sanaladi. "Menimcha", "Men o'ylaymanki", "Ishoning", "Ehtimol, men nohaqdirman" kabilar inglizlarning sevimli iboralaridir.

**B matn.** Muzokaralarning milliy uslubi - madaniyat, tafakkur, idrok va xulq-atvorning milliy xususiyatlari. Ular muzokaralarni tayyorlash va o'tkazishga ta'sir qiladi.

Amerikalik har doim muzokaralarga tayyor bo'ladi. U professionallik, ochiqlik, mustaqillik va pragmatizm bilan ajralib turadi. Amerikaliklar halollik va ochiqlikni



qadrlaydigan odamlardir. Germaniya vakillari muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishadi. O'z pozitsiyalarini puxtalik bilan ishlab chiqishadi. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilgan taqdirdagina muzokaralarga kirishadilar. Muzokaralarda nemislar tizimli va barcha tafsilotlarni sinchkovlik bilan ko'rib chiqishadi. Oldindan kelishilgan kun tartibiga muvofiq ravishda masalalarni birin-ketin muhokama qilishni afzal ko'radilar. Ular muzokaralarni to'g'ri, o'z vaqtida olib boradilar va qoidalarga qat'iy rioya qiladilar. Nemislarning barcha takliflari aniq va ishbilarmonlikka xosdir. Nemislar muzokaralarga juda jiddiy yondashadilar va o'zlarining xatti-harakatlarida yumor va hazillarga yo'l qo'ymaydilar. Nemislarga qaror qabul qilish uchun ko'proq vaqt kerak. Ular masalani har tomonlama tahlil qiladi va barcha mumkin bo'lgan variantlarni tekshiradi. Nemislar qarorni qabul qilingandan keyin o'zgartirishni yoqtirmaydilar. Nemislar ularni amalga oshirishning keng qamrovli kafolatlarini olmasalar, shartnomani imzolamaydilar. Ular erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda nihoyatda aniq va sinchkovlik bilan yondashadi. Hamkorlaridan ham shuni talab qiladilar. Britaniyaliklarning fikricha, muzokaralardagi sherikning o'z pozitsiyasiga qarab, eng yaxshi yechim topiladi. Shu bilan birga, ular yetarlicha moslashuvchan va qarama-qarshi tomonning tashabbusiga bajonidil javob berishadi. Shuningdek, britaniyalik hamkorlar bilan muzokaralar puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Inglizlar muzokaralarni kundalik muammolar (ob-havo, sport va boshqalar) bilan boshlashni afzal ko'radilar. Ingliz vakillari ochiqchehra va xushmuomala, ammo qonunlarga qat'iy va so'zsiz amal qilishadi. Inglizlar o'z manfaatlarini mohirlik bilan va samarali himoya qiladilar. Ingliz muzokarachilarining kuchi ularning mamlakat, mavzu va muhokama qilinayotgan muammolar haqida mukammal bilimlaridir. Ular juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. Ular muzokaralardagi vaziyatni diqqat bilan tahlil qilib, prognozlar tuzishga qodir. Inglizlar uchun o'tkir burchaklardan qochish qobiliyati an'anaviy qobiliyatlardan sanaladi. Inglizlarning yaxshi ko'rgan iborolari: "Menimcha", "Men o'ylaymanki", "Ishoning", "Ehtimol, men nohaqdirman".

Matnlardan ko'rinib turibdiki, *B matnini* soddalashtirish sintaktik darajada sodir bo'ladi. O'zgarishlar grammatik tuzilmalarga taalluqlidir: qo'shma gap o'rniga sodda gap, bir bosh bo'lakli gap o'rniga ergash gap, so'z birikmalari esa umumiy ma'noli so'z bilan almashtiriladi, iboralar soddalashtirilgan va kam qo'llaniladigan so'zlar bilan almashtirilib, ularning ma'nosini ochib beruvchi iboralar bilan o'zgartiriladi. Leksik darajada biz so'zlarning tez-tez uchraydigan sinonimlar bilan almashtirilishini, tor ma'noli so'zni kengroq ma'noli so'z bilan yoki bir xil mavzuiy qatordagi so'zlar bilan almashtirishni qayd etdik. Matndagi so'zlarni almashtirish amalda uning axborot mazmunini kamaytirmaydi va barcha transformatsiyalarni soddalashtirishga olib keladi.

Matnlarni o'qib, tarjima qilgandan so'ng, barcha talabalar mavzu bo'yicha teng miqdorda ma'lumot oladi va shuning uchun 3-topshiriqni bajarish orqali muhokamada qatnashishi mumkin. Matndan keyingi savollar soni cheklangan.

*3-topshiriq.* Matnga berilgan savollarga javob bering. 1. Milliy muzokara uslubi deganda nimani tushunamiz? 2. Qaysi mamlakatlarning milliy muzokara uslublari bilan tanishdingiz? 3. Amerikalik muzokarachilarning o'ziga xos xususiyatlari qanday? 4. Amerikaliklar muzokaralar jarayonini qanday quradilar? 5. Germaniya delegatsiyasi bilan muzokaralar olib borish xususiyatlarini sanab bering. 6. Inglizlar bilan olib borilayotgan muzokaralar jarayonining nemislar va amerikaliklar bilan olib borilgan muzokaralaridan qanday farqi bor? 7. Muzokaralarning qaysi xususiyatlari sizni hayratda qoldirdi? 8. Qaysi mamlakatlardagi muzokara jarayonlari haqida bilishni xohlaysiz, nima uchun?

Talabalar matn mazmunini qanday tushunganliklarini test yordamida tekshirish taklif etiladi (u boshqa turda ham bo'lishi mumkin). Matn mazmunining izchilligini o'rnatish uchun test (uni sinov zanjiri deb ataymiz) bajarish paytida ko'p qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Talaba dastlab tayyor sintaktik birlikni ko'rmaydi, u faqat berilgan unsurlardangina uni o'zi yaratishi kerak. Nomlangan testda berilgan obyektlarning tartibini aniqlash taklif etiladi (gap bo'laklari). Shuning uchun, misol tariqasida, biz, quyidagicha ko'rinishda bo'lgan test-zanjirini beramiz:

*4-topshiriq.* Zanjir bo'ylab kerakli variantni tanlab, matnni tiklang. Yozma matnning qayta hikoyasini tayyorlang. 1. A) Muzokaralarning milliy uslubi – bu milliy o'ziga xosliklar B) rasmiyatchilik haqida. Ular quyidagilarga e'tibor qaratadilar: ommaviy axborot vositalariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalanganlar. 2. A) pozitsiya. Ular faqat B) professionallik, ochiqlik, mustaqillik, C) madaniyat, tafakkur, idrok va xulq-atvorga ega bo'lgandagina muzokaraga kirishadilar. Amerikalik har doim 3. A) eng keng tarqalgan fikrlashning o'zgachaligiga, B) muzokaralarga professional tarzda tayyorlangan. Unga xarakterli bolgan B) o'z maqsadlari, ular qanday qilib savdolashishni bilishlari va yaxshi ko'rishlari. 4. A) ochiqlik, mustaqillik, pragmatizm. Amerikaliklar gapni to'g'ri yuzga aytishadi B) ba'zida juda qat'iy, hatto tajovuzkor ko'rinishadi B) o'z pozitsiyalarini sinchkovlik bilan ishlab chiqishadi. 5. A) agar ular amalga oshirishning to'liq kafolatlarini olmasalar. B) sherikning o'ziga nisbatan tutgan pozitsiyasiga qarab, C) odamlar halollik va ochiqlikni qadrlaydilar. Maqsadga qat'iyat bilan intiladilar. 6. A) muzokaralarni tayyorlash va o'tkazish jarayoniga ta'sir ko'rsatish. B) muzokaralar va eng yaxshi yechim topiladi. C) Muzokaralarda matbuot bilan muloqotga katta e'tibor beradilar. 7. A) Germaniya vakillari ishonch hosil qilganlarida muzokaralarni boshlaydilar. B) qaror. Shu bilan birga ular ancha moslashuvchan. B) reglament. Nemislarning barcha takliflari sof biznesdir D) ularga kerakli natija. 8. A) xatti-harakatlarida yumor va hazilga yo'l qo'yimaslik. B) variantlar.

Bir marta qabul qilingan qarorni o'zgartirishni yoqtirmaslik C) ular kerakli natijani olishlarini. Nemislar masalalarini muhokama qilmoqda 9. A) qarama-qarshi tomon. Shu bilan birga, muzokaralar. B) kun tartibi masalalari izchil. Ular hamma narsani sinchiklab ko'rib chiqadilar C) Qoidaga ko'ra, nemislar shartnomani imzolamaydilar. A) tafsilotlar. Ular muzokaralarni to'g'ri, o'z vaqtida olib boradi va qoidalarga qat'iy rioya qiladi. B) oldindan kelishilgan shartga qat'iy rioya qilgan holda C) inglizlar muzokaralarni predment bo'yicha emas, balki boshqacha boshlashni ma'qul ko'radi 11. A) nemislarga qaror qabul qilish uchun ko'proq vaqt kerak B) vakillar xushmuomala va xayrixoh, ammo C) ularning takliflari aniq va o'ziga xos. Nemislar juda jiddiy qaraydilar.

12. A) erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda va xuddi shu B) muzokaralarga. Ular sinchkovlik bilan tahlil qiladilar va sinab ko'rishadi. D)eng yaxshi yechimlarni Shu bilan birga, ular ancha moslashuvchan va 13. A) variantlarga tayyor. Ular kelishuvlarni va bir xil B) munozaralarni sinchkovlik bilan bajaradilar, lekin kundalik muammolardan (ob-havo, sport va boshqalar). C) variantlar, ular bir marta qabul qilingan qarorni o'zgartirishni yoqtirmaydilar, 14. A) tayyorgarlik va muvofiqlashtirish. Ular boshlashni afzal ko'radilar B) sheriklaridan talab. Inglizlar bajonidil javob berishadi B) o'z manfaatlarini himoya qilish. Muzokarachilarning kuchi.

15. A) qarama-qarshi tomonning tashabbusi. Muzokaralar bilan B) Inglizlar uchun an'anaviy - bu qochish qobiliyati. C) Nemislar muzokaralarda muhokama qilishni afzal ko'radi. 16. A) "menimcha, o'ylashimcha, balki men nohaqdirman" B) juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. C) ularni puxta tayyorlash va muvofiqlashtirish kerak. 17. A) xushmuomala va do'stona, lekin juda qattiq B) ingliz vakillari xushmuomala va samimiy, lekin juda qattiq C) oldindan kelishilgan kun tartibiga qat'iy muvofiq. 18. A) qonunlarga rioya qilish. Inglizlar mohirlik bilan va samarali himoya qiladilar B) Inglizlarning eng sevimli iboralari "menimcha". C) sof ishbilarmonlik va o'ziga xoslik. 19. A) fikrlash, idrok etishning eng umumiy xususiyatlari B) Ingliz muzokarachilarining kuchli tomoni C) o'z manfaatlari. Ular professionallar, vaziyatni tahlil qilishni biladilar. 20. A)Ular juda yuqori professional darajasi bilan ajralib turadi. B) bashorat qilish. Inglizlar o'tkir burchaklardan qanday qochish kerakligini bilishadi. C) muhokama qilinayotgan mamlakat, mavzu, muammolarni mukammal bilish.

Ushbu vazifani mustaqil bajarish talabalarning bilish faolligini rivojlantiradi, bilimlarni amaliy qo'llashni yaxshilaydi va o'rganilgan materialni mustahkamlaydi. Talabalarning material qanchalik yaxshi o'zlashtirilganligini tushunishga vaqtlari bo'ladi. Bundan tashqari, test topshiriqlaridan foydalanish talabalarni har bir darsga tayyorlanishini rag'batlantiradigan va o'rganilayotgan fanga bo'lgan ishtiyoqini

oshiradigan juda samarali vositadir. Keyingi bosqichda talabalar eng keng tarqalgan topshiriqlardan birini, ya'ni qayta hikoya qilish topshiriladi. Bunday vaziyatda talabalar duch keladigan asosiy qiyinchilik katta hajmdagi matnni qayta ishlash va yodda saqlashdir. Test zanjirining to'g'ri javoblarini tanlab, talaba qayta hikoya qilish uchun tayyor matnni olib, uni tayyorlashi kerak.

Leksik materialni yanada rivojlantirish va mustahkamlash talabalar uchun o'zbek tili grammatikasining eng qiyin mavzulari bo'yicha leksik va grammatik mashqlarni bajarish jarayonida sodir bo'ladi: sinonimlar/antonimlardan foydalanish, fe'llar va fe'l shakllaridan foydalanish, so'z birikmasi bilan konstruksiyalar tuzish, sintaktik sinonimiya. Boy lug'at talabalarga ma'lum bir muloqot sharoitida eng mos so'z, ibora yoki nutq klishesini topishga imkon beradi. Sinonim / antonimlarni tanlash bo'yicha mashqlar talabalarning tilning tizimli tabiatini ko'rishga, mavzu bo'yicha leksik minimumni o'zlashtirishga, o'rganilayotgan lug'atni faol foydalanish holatlari bilan uyg'unlashtirishga va kengaytirishga yordam beradi. "Minimal lug'at har bir kishi uchun foydalidir, uni kengaytirish individual va asosan mustaqil ishlashga bog'liqdir" (3, 9). O'qituvchining vazifasi esa talabalarga ushbu individual ishni o'rgatishdan iborat. Belgilangan grammatik mavzuni ishlab chiqish uchun mashqlar turli yo'llar bilan tuzilishi mumkin: masalan, 1. Matnda ajratilgan so'z va iboralar uchun sinonimlarni (antonimlarni) tanlang. 2. Sinonimlarni (antonimlarni) bog'lang. 3. Matnda ajratilgan antonim (sinonim) so'zlarni ishlatib, savollarga javob bering. 4. Matndagi ma'lumotlarga sinonim bo'lgan gaplarni toping. "Muzokaraning milliy uslublari" matni uchun topshiriq namunasi:

*5-topshiriq.* Tagiga chizilgan so'z va iboralarga sinonimlar tanlang.

1. Amerikaliklar masalani tez *tushunadi* va rasmiyatchilikka vaqt sarflamaydi. 2. Vakillar asosiy masalaga e'tibor *qaratadilar*. 3. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirishga qat'iyat bilan *harakat qilishadi*. 4. Nemislar chuqur *tahlil qiladilar*. 5. Nemislar, agar ularni amalga oshirish bo'yicha keng qamrovli kafolatlar olmasa, shartnomani imzolashga *shoshilmaydi*. 6. Ular juda yuqori professional darajasi bilan *ajralib turadi*. 7. Ingliz muzokarachilarining kuchi ularning muhokama qilinayotgan masalalarni *mukammal bilishi*.

O'zbek tilining chet tili sifatida o'qitilishi kursida fe'l alohida o'rin egallaydi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, chet til talabalari uchun og'zaki mavzular murakkabroq, chunki fe'lning shakllari turli xil semantikasi bilan ajralib turadi, ular turli xil sintaktik aloqalarga kiradi va har xil rasmiy tuzilishdagi jummalarning bir qismidir. "Predikatni ifodalash" mavzusidagi topshiriqni, masalan, quyidagicha shakllantirish mumkin: 1. Nuqtalar o'rniga zarur fe'llarni qo'ying. 2. Qavs ichidagi fe'llar bilan gaplarni to'g'ri shaklda to'ldiring. 3. Matn materialidan foydalanib, ushbu fe'llar bilan gaplar tuzing.



Taqdim etilgan matnning topshirig'i quyidagicha bo'ladi: *6-topshiriq*. Nuqtalar o'rniga zarur fe'llarni qo'ying.

1. Nemislar muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishga katta ... .. 2. Ular puxtalik bilan o'z pozitsiyalarini ... .. 3. Ular istalgan natijaga ishonch hosil qilgan taqdirdagina muzokaralarga ... .. 4. Nemislar kun tartibi oldindan ... .. 5. Muzokaralarda savollar qat'iy birin-ketin ... .. 6. Barcha tafsilotlar diqqat bilan ... .. 7. Ular barcha mumkin bo'lgan variantlarni qaror qabul qilingandan keyin ... .. 8. Muzokaralar to'g'ri, o'z vaqtida, qat'iy reglament bilan ... .. 9. Nemislar muzokaralarni olib borish jarayonida juda jiddiy ... va hech qachon ... ..

Bunday mashqlarni tizimli ravishda bajarish juda muhimdir, chunki bu talabalarga ushbu grammatik hodisani o'zlashtirish bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishga va shunga mos ravishdagi nutqiy vaziyatlarda fe'l shakllaridan erkin foydalanishga imkon beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu turdagi gaplardagi sintaktik bog'lanishlarni aniqlash mahorati talabalar tomonidan birdaniga rivojlanmaydi. Talabalar tomonidan fe'l to'g'ri tanlanadi, lekin so'z birikmasi hosil qilganda zamon va kelishik qo'shimchalarini qo'shishda ko'pincha qiyinchilik tug'iladi. Xatolarga yo'l qo'yimaslik uchun talaba birlashuvchi so'zning ma'nosi, zamoni va sonini tanlashni bilishi kerak, bu u tegishli bo'lgan asosiy qismning otiga (birinchi zanjir) va holat – fe'l-predikatga bog'liq (ikkinchi zanjir). Ushbu mavzuni chuqur o'zlashtirish o'zbek tilini bilish darajasini yanada oshirish uchun juda muhimdir. So'z bilan sintaktik konstruksiyalarni munosabatga kiritish mexanizmini tushunib olish va mashq qilish juda muhim, chunki ular nutqda ko'p qo'llaniladi.

*7-topshiriq*. Qo'shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

1. Qarshi tomon boshlagan muzokara jarayoni shunday aniq bo'ldiki, hatto hukumat ta'sir ko'rsata olmadi. 2. Yig'ilishda delegatsiya vakillari o'z fikrlarini bildirdilar, lekin bunday qarorning qabul qilinishini tasavvur ham qila olmadilar. 3. Mezbonlar qoidalarni taklif qilgan bo'lsa ham, vakillar ularga amal qilishni xohlamadi. 4. Yig'ilish dasturi oldindan tanishish uchun taklif qilinmagan bo'lsa-da, kun tartibiga to'g'ri keldi. 5. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilsa, muzokaraga kirishadilar. 6. Inglizlar muhokama qilinayotgan mavzu va muammolardan yaxshi xabardor bo'lsa ham, taklifnoma bilan yana bir bor tanishib chiqdilar.

Talabalarni o'qitishdan maqsad lingvistik kompetensiyaga asoslangan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir. Bunga, ayniqsa, 8-topshiriqning bajarilishi va tushunilishi yordam beradi (1.Sodda gaplarni sinonimik murakkab gaplar bilan almashtiring. 2.Murakkab gaplarni sinonimik sodda gaplar bilan almashtiring. 3.Bog'lovchi qo'shma gaplardan foydalanib, ikkita sodda gapni bitta murakkab gapga aylantiring. 4.Murakkab gaplarda yetishmayotgan tobe bog'lovchilarni to'ldiring.



O‘zbek tilining sintaktik sinonimlarini (yoki parallel sintaktik tuzilmalarni) o‘rganish o‘zbek tilining chet tili sifatidagi metodologiyasida katta nazariy va amaliy qiziqish uyg‘otadi, chunki sinonimiya tildagi tizimli munosabatlarning eng yorqin ko‘rinishlaridan hamda tilni ifodali vositalar bilan boyitish manbalaridan biridir. Hozirgi ona tili ta’limi yoshlarning nutqiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishni bosh omil deb hisoblar ekan, qo‘shma gap sinonimiyasi ustida doimiy ravishda amaliy-ijodiy ishlash talab etiladi. (3, 165) Ushbu mavzu bo‘yicha ishlar til taraqqiyoti qonuniyatlarini, matn tili va uslubining xususiyatlarini tushunishga, talabalarning yozma va og‘zaki nutqida faol ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, nutqning ifodali vositalarining boyligiga kirishni osonlashtiradi va ularni tizimda ifodalash imkonini beradi. Sintaktik sinonimiya mashqlari o‘ziga xos lingvistik tajriba bo‘lib, u sintaktik konstruksiyalarni o‘zgartirishga asoslangan. Bunday mashqlarni bajarish o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi. Talabalar bu konstruksiyalarning sinonim ekanligini, ular o‘rtasida transformatsion munosabatlar mavjudligini aniqlashni o‘rganadilar (4, 133) hamda matnda ifodalangan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi va kontestdagi ma’nosini solishtirish, mantiqiy fikrlashga e’tibor qaratish, ma’lumotlarning ichidan muhimini ajaratib olish, matn haqida xulosa bera olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar (5, 2).

“Muzokaralar olib borishning milliy uslublari” matni uchun taklif qilingan topshiriqlarga misol: *8-topshiriq. Berilgan gaplarning kesimini sinonimlar bilan almashtiring.*

1. Nemislar, agar ularni amalga oshirishning har tomonlama kafolatlarini olmasalar, shartnomaga qo‘l qo‘ymaydilar. 2. Delegatsiya muzokaralarni to‘g‘ri, o‘z vaqtida olib bordi, reglamentga qat’iy rioya qildi. 3. Nemislar muzokaralarga juda jiddiy yondashadilar, yumor va hazilga yo‘l qo‘ymaydilar. 4. Amerikaliklar hazilni tushunishadi va ularga yaxshi javob berishadi. 5. Britaniyaliklar hamkorning fikrini tinglaydilar va uning tashabbusiga bajonidil javob beradilar. 6. Nemislar hamma narsa sinchiklab tahlil qilinib, tekshirilgandagina qaror qabul qiladi. 7. Amerikaliklar vaqt va punktuallikni qadrlashadi.

*9-topshiriq. Sodda gaplarni sinonimik murakkab gaplar bilan almashtiring.*

1. Nemislarga qaror qabul qilish uchun ko‘proq vaqt kerak. 2. Nemislar muzokaralarga juda jiddiy yondashganidan muzokaralar jarayonida hazilga yo‘l qo‘ymaydi. 3. Ular kerakli natijaga erishishlariga ishonch hosil qilgandagina muzokaraga kirishadilar. 4. Amerikaliklar halollik va ochiqlikni qadrlaydigan odamlar bo‘lganidan har doim muzokaralarga tayyor bo‘ladi. 5. Yuqori professional saviya tufayli inglizlar barcha bahsli masalalarni yechishga muvaffaq bo‘lishadi. 7. Uchrashuv sanasi va dasturini kelishib, ingliz hamkorlaringizni kelishingiz haqida xabardor qilish shart emas.

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, taklif qilingan barcha grammatik vazifalar ishlab chiqilayotgan mavzuning leksik materialiga asoslanadi. Talabalar lug‘atning tizimli tabiatini namoyon bo‘lishini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar: semantik maydon, leksik-semantik va mavzuli guruhlar, sinonimik zanjirlar. Taklif etilayotgan vazifalar leksik birlikni xotirlash, uni boshqalar bilan, jumladan, so‘zni kengroq kontekstda birlashtirish va sintaktik darajada transformatsiyalar kabi harakatlarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Berilgan barcha topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, talabalar ushbu mavzu bo‘yicha muloqot masalalarini yechishga tayyor bo‘ladilar (10-topshiriq) (masalan, siz AQSH delegatsiyasini kutmoqdasiz. Uchrashuvga tayyorgarligingiz haqida bosqichma-bosqich aytib bering). Mavzu bo‘yicha ishni ijodiy topshiriqni (11) bajarish orqali umumlashtirish taklif etiladi (masalan: 1. Ushbu matn uchun asosiy kalit so‘zlarni tanlab, slayd-shou tuzing. Mavzulardan biri bo‘yicha matn tuzing. “Har qanday ziddiyatni muzokaralar yo‘li bilan hal qilish mumkinmi?”, “Odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati iste’doddan muhimroq”, “Avval sizni tushunishlari haqida emas, balki boshqalarni tushunish haqida o‘ylang” va hokazo). Psixologlarning ta’kidlashicha, mutlaq bir xillikka (tarkib bo‘yicha guruhning bir xilligiga) erishish mumkin emas. Talabalarning qobiliyatlari bo‘yicha tenglik kamida 70% bo‘lgan guruh bir xil deb hisoblanadi (6, 54). O‘quv jarayonining maqsadi – har bir talabaning qobiliyatini, moyilligini maksimal darajada rivojlantirish, qiziqishlarini, ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarni ta’minlash. Shuning uchun guruhning barcha talabalari bilim va faoliyat usullarini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishadigan o‘quv jarayonini tashkil etishning shunday usullarini topish juda muhimdir. Turli darajali guruhda o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rgatishga mos keladigan turli darajadagi moslashuv matnlari yordamida kontingentning o‘ziga xos xususiyatlari va guruhning barcha talabalari faolligini ta’minlash va optimallashtirish mumkin. Matnlar muayyan muammolarni hal qilish uchun moslashtirilgan: matnlarda paydo bo‘ladigan tuzilmalar va belgilarning tarkibini ham, zarur leksik va grammatik hodisalarning yetarli darajada takrorlanishini ta’minlashdan iborat. Matnni murakkab mashqlar tizimi bilan to‘ldirish muayyan mavzu doirasida leksik va grammatik materialni rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbek tili bo‘yicha turli darajadagi kompetensiyalarga ega bo‘lgan guruhda ishlashning tavsiya etilgan usuli har bir talaba o‘zini yetarlicha erkin his qilib, dars jarayonida faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitni tashkil qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Полат Е.С. Метод проектов на уроках иностранного языка//Иностранные языки в школе. - № 2, 2000.
2. Ласкарева Е.Р. Прогулки по русской лексике. -Санкт-Петербург, 2010.
3. То‘хлиев В., Shamsiyeva M, Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.:O‘zYU Adabiyot, 2006.
4. Лапуцкая И.И. Синтаксическая синонимия: концепция, стиль техники. –Горки, 2012.
5. Abdunazarov O. Ona tili darslarida o‘qib tushunish, eshitib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish//Til va adabiyot ta’limi. -№2, 2022.
6. Ворожищева Н.Н. Технология разноуровневого обучения. -Омск, 2000.

## “ASOSIY VOSITALAR” BHXS 16 STANDARTINI XALQARO TALABLAR ASOSIDA TURKUMLANISHNING ASOSLARI

**Qoxxorova Mohigul Abdurashid qizi**

Toshkent Moliya Instituti, 1-kurs magistr, Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik):

70410101 - Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

[mohigul.qahhorova@mail.ru](mailto:mohigul.qahhorova@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standarti maqsadi, qo'llash doirasi, asosiy vositalar, asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati hamda turkumlanishi va xalqaro talablar asosida yuritilishi haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar, standart, buxgalteriya, turkumlanish, qonunchilik.

### ABSTRACT

This article discusses the purpose of the international accounting standard, scope, property plant and equipment, classification and economic significance also based on international requirements.

**Keywords:** property plant and equipment, standard, accounting, classification, legislation.

### KIRISH

Jahon amaliyotida olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy vositalarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilishda yuzaga chiquvchi muammolar, ularda asosiy vositalar hisobining turlicha yuritilishi, asosiy vositalar to'g'risidagi ma'lumotlarning bir xil andoza talablari doirasida emasligi, asosiy vositalar obykti sifatida tan olinuvchi aktivlar iqtisodiy mazmunining turlicha talqin etilishi kabi muammolar keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobni yuritish va asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish bo'yicha uzluksiz tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda asosiy vositalarni tasniflash, tan olish, baholash, ularga eskirish hisoblash, tahlil qilish uslubiyotini tashkil etishni ta'minlashning afzalliklari belgilab berilgan. Shu sababli dunyo miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (IFRS) joriy etish asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan.

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarni muntazam ravishda modernizasiya qilish, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda investisiyalar kiritish

talablaridan biri moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va ulardan foydalanishdir. Ayniqsa asosiy vositalarni muntazam yangilab turishda uning hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) 16 – sonli “Asosiy vositalar” nomli standart asosida yuritish qulay investision muhit yaratadi. Chunki ushbu standart asosida hisob siyosati yuritilishi investorlar uchun qulay va ishonchli moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi natijasida asosiy vositalarga investisiya kiritish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro amaliyotda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish va uni BHXS 16 - sonli “Asosiy vositalar” standartiga muvofiqlashtirish, asosiy vositalar auditini tashkil etish va uni takomillashtirish maqsadida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida doimiy ravishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanadada US GAAP, UK GAAP standartlari asosida asosiy vositalar amortizatsiyasi, qayta baholash va ularni o‘zaro almashtirish qiymatlarini aniqlash va buxgalteriyada aks ettirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin ushbu sohada yechimini kutayotgan masalalar juda ko‘pligi va jahondagi tajriba hamda ilmiy yutuqlarni o‘rganish asosida asosiy vositalarni baholash, ularning holati va tarkibini o‘rganish natijasida aktivlarni boshqarish bo‘yicha to‘g‘ri va aniq qarorlar qabul qilish, asosiy vositalar auditi hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish zarurati vujudga kelmoqda.

O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyotni tashkil etish sharoitida hisob tizimi, xususan, asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish hamda moliyaviy axborotlarning shaffofligini ta‘minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Respublikada «2021 yil 1 yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash»<sup>3</sup>masalalariga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash, mahalliy korxonalarimizni xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, aktivlar va majburiyatlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish asosida moliyaviy hisobotlarni axborot imkoniyatlarini oshirish bugungi kunda buxgalteriya hisobi sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi etib belgilangan. Mazkur maqsadga erishishni ta‘minlashda asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish va tahlil etish uslubiyotini rivojlantirish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalarining ilmiy-

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”giPQ-4611-son qarori



nazariy, uslubiy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlardan I.Melnikov, Ye.Sivkov, T.Yu.Sergeeva, Yu.Tryashenko, Yu.A.Babaev, A.M.Petrov, X.P.Raymond, A.A. Dodonov va boshqa ko'plab olimlar ning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.A.Karimov, D.Kudbiev, K.B.Urazov, S.N.Tashnazarov, B.O.Bolibekov, D.M.Matkarimov, Q.X. Xatamov va boshqalarning ilmiy asarlarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan hamda bu bo'yicha nazariy-uslubiy masalalar yoritib berilgan.

Maqolani yozishda ilmiy abstraksionalash, induksiya, deduksiya, tizimli yondashish, qiyosiy tahlil va sintez, iqtisodiy-matematik modellashtirish va guruhlash, monografik kuzatuv kabi usullardan foydalanilgan.

## NATIJARLAR

Iqtisodiyotni globallashtirish jarayonida ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal etuvchi ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Ushbu masalada asosiy vositalarni tarkibi va undan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir vositani ma'lum bir xususiyatlari bo'yicha tasniflash va tarkibiy joylashtirib chiqish mumkin bo'ladi. Xususan, korxonalarining asosiy vositalarini ham ma'lum bir xususiyatlari bo'yicha tasniflab, ularni tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi.

Hisob va rejalashtirishda asosiy vositalar ma'lum guruhlariga bo'linib hisobga olinadi va rejalashtiriladi. Chunki asosiy vositalarni hisobga olish, rejalashtirishni to'g'ri tashkil qilishning muhim sharti bo'lib, ularni ilmiy jihatdan turkumlash va baholash hisoblanadi.

Asosiy vositalarning turkumi – bir xil xususiyatga va tadbirkorlik subyekting faoliyatida foydalanish maqsadlariga ega bo'lgan aktivlarning guruhidir.

Bugungi kunda buxgalteriya sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga haqqoniy, to'liq va to'g'ri ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazib berish hamda investitsion qarorlarni qabul qilish uchun asos sifatida foydalana olinishi mumkin bo'lgan darajaga ko'tarishdir. Biroq mamlakatimiz me'yoriy huquqiy hujjatlarida keltirib o'tilgan shart va talablar bu maqsadlarni bajarish uchun yetarli emas.

Bundan tashqari korxonalarda asosiy vositalarni buxgalteriyada hisobga olish shartlarini belgilovchi 5-son BHMS "Asosiy vositalar"da ham qayd etilgan me'yorlar bugungi kun talablariga javob bermaydi. Shu sababdan mazkur me'yoriy-huquqiy

hujjatlarni xalqaro standartlar talablari asosida qayta shakllantirish va yangidan qabul qilish zarurati yuzaga chiqadi.


Respublikamizda amalda bo'lgan 5-son BHMS "Asosiy vositalar"ga ko'ra quyidagi ta'rifga javob bergan hisob obyektlari asosiy vositalar sifatida tan olinishi belgilab berilgan:

- bir yildan ortiq xizmat muddati;

- bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar. Korxonalar rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashga haqli.

Buxgalteriya hisobi uchun asosiy vositalar turli mezonlarga muvofiq tasniflanadi. Tashkilotning asosiy fondlari tarkibi va maqsadi jihatidan xilma-xildir. Asosiy vositalar hisobini tashkil qilish uchun ular turi, maqsadi, bo'linmalari, foydalanish va egalik qilish darajasi bo'yicha tasniflanishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi subyekt va firmalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni soddalashtirish maqsadida ular muayyan tasnif ko'rsatkichlari orqali guruhlariga bo'linadi. (1-rasm)



**1-rasm. Asosiy vositalarni turkumlash<sup>4</sup>**

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- maxsus asboblardan va moslamalardan (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan, maqsadli yo'naltirilgan asboblardan va moslamalardan);
- maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallardan;
- ko'rpa-to'shak anjomlari;

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

- yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblar va boshqalar);
- oshxona anjomlari, shuningdek oshxona uchun dasturxon-sochiqlar;
- tiklanishi bo'yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul inshootlar) moslamalar va qurilmalar;
- kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- ov qurollari (trallar, to'rlar, qarmoqlar, matraplar, merejalar va boshqalar).


Asosiy vositalar tarkibida qonun hujjatlariga muvofiq korxonalar mulkiga o'tkazilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi. Ko'p yillik ko'chatlarga, yerni tubdan yaxshilashga, ijaraga olingan asosiy vositalar obyektlariga kapital qo'yilmalar har yili butun ishlar majmuasi yakunlangan sanadan qat'i nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi.

### Asosiy vositalarni bajaradigan vazifasiga ko'ra turkumlash

Yer
Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar
Mashina va asbob-uskunalar;
Mebel va ofis jihozlari;
Komputer jihozlari va hisoblash texnikasi;
Transport vositalari;
Ishchi va mahsuldor hayvonlar;
Ko'p yillik o'simliklar;
Konservatsiya qilingan asosiy vositalar
Boshqa asosiy vositalar


**2-rasm. Asosiy vositalarni bajaradigan vazifasiga ko'ra turkumlash<sup>5</sup>**

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi



### 3-rasm. Makroiqtisodiy hisob-kitoblarni yuritish maqsadida asosiy vositalar bajaradigan vazifasiga ko'ra<sup>6</sup>

Ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida asosiy vositalar obyektlardan foydalanish darajasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi: (4-rasm)




### 4-rasm: Asosiy vositalardan foydalanish darajasiga ko'ra turkumlanishi<sup>7</sup>

Asosiy vositalarning bunday guruhlanishi ulardan foydalanish samaradorligini baholash, eskirgan vositalarni almashtirish, keraksiz asosiy vositalarni boshqa xo'jalik yurituvchi subyektgacha berish yoki sotish to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek, ularning eskirishini to'g'ri hisob-kitob qilish uchun zarur.

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi



### 5-rasm: Asosiy vositalarni joylashgan joyi (javobgarlik markaz)lari bo'yicha turkumlanishi<sup>8</sup>

Korxonada balansida qayd etilgan asosiy vositalar faol va passiv mehnat vositalariga bo'linadi. Asosiy vositalarning faol qismiga mashina va uskunalari, ishlab chiqarish va maishiy inventarlar, passiv qismiga esa transport vositalari, binolar, inshootlar, yo'llar va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy vositalarning passiv qismi ishlab chiqarish jarayonining normal borishini ta'minlaydi va asosiy vositalarning faol qismi bu jarayonning mehnat vositasidir. Asosiy vositalar fondini shakllantirishda ularning tuzilishining optimalligiga rioya qilish asosiy vositalarning passiv qismining optimal talab qilinadigan miqdorga nisbatan ortiqcha o'sishining oldini olish kerak.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida buxgalteriyada asosiy vositalarni hisobga olish bir nechta moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tartibga solinadi. 16-son BHXS "Asosiy vositalar", 5-son MHXS "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat", 17-son BHXS "Ijara", 40-son BHXS "Investitsion mulk" hamda 13-MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash" kabi xalqaro standartlar shular jumlasidandir. Bundan tashqari biologik aktivlarni hisobga olish uchun alohida 41-son BHXS "Qishloq xo'jaligi" nomli standart ko'p yillik o'simliklar hamda ishchi va mahsuldor hayvonlarni hisobga olish shartlarini belgilaydi. Ushbu sanab o'tilgan standartlar asosiy vositalarni o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni tan olish, baholash, qadrsizlanishni aniqlash va hisobdan chiqarish jarayonlari uchun zarur shartlarini belgilaydi hamda, mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi



xizmatlarni ko'rsatish, yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish, yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljalangan va bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan<sup>9</sup> hisob obyektlarini asosiy vosita sifatida e'tirof etadi (1-jadval).

**1-jadval**

**Asosiy vositalarning MHXSga asosan tasniflanishi<sup>10</sup>**

Tasniflanishi	Asosiy vositalar turlari	Tasniflanish maqsadi
Odatiy asosiy vositalar (16-son BHXS bo'yicha hisobga olinadi)	- yer; - bino; - inshootlar; - mashina va uskunalari; - transport vositalari; - uzatish qurilmalari ishlab chiqarish va maishiy texnik vositalar; - boshqa asosiy vositalar; - qurilishi tugallanmagan asosiy vositalar.	Aktivning qiymatining o'zgarishini davr boshi va oxiriga nazorat qilish
Investitsion mulk (40-son BHXS bo'yicha hisobga olinadi)	Korxonalar ijaraga berish evaziga daromad olishi kutilayotgan ko'chmas mulk obyektlari (moliyaviy ijara obyektlaridan tashqari)	Aktivlar asosiy vosita sifatida tan olishning odatiy mezonlariga javob bermaganligi sababli alohida hisobga olish
Biologik aktiv (41-son BHXS bo'yicha hisobga olinadi)	- ishchi va mahsuldor hayvonlar; - ko'p yillik daraxt va o'simliklar;	Aktivlar asosiy vosita sifatida tan olishning odatiy mezonlariga javob bermaganligi sababli alohida hisobga olish

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobini va ularni saqlanishi nazoratini tashkil etish maqsadida asosiy vositalarning har bir inventar obyektiga ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilishda boshlang'ich hujjatlarini rasmiylashtirishda tartibli-seriyali tizim bo'yicha tegishli inventar raqamlari beriladi. Inventar raqami inventar obyektining o'zida bo'yoq, temir jeton, kley yoki boshqa usullar bilan aks ettiriladi. Har xil foydali ishlatish muddatiga ega va alohida inventar obyekt sifatida hisobga olingan bir nechta qismlarga ega bo'lgan inventar obyektlarining har bir qismiga alohida inventar raqami beriladi. Agar bir necha qismlardan iborat obyekt bo'yicha obyektlar uchun umumiy foydali ishlatish muddati belgilangan bo'lsa, u holda ko'rsatilgan obyekt bitta inventar raqami bilan hisobga olinadi.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning qaysi sohasida bo'lishidan qat'iy nazar asosiy vositalarsiz tashkil etilishi imkonsizdir, lekin tadqiqotlar natijasida mamlakatimizda

<sup>9</sup>16- son BHXS "Asosiy vositalar". Manba: <https://www.iasplus.com/en/standards/ias/ias16>

<sup>10</sup>Muallif ishlanmasi

faoliyat olib borayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar mavjud asosiy vositalarini taqdim etayotgan moliyaviy hisobotlarida aks ettirmaslikni afzal ko‘rishmoqda.

### MUHOKAMA

Jahon iqtisodiyotining koronavirus pandemiyasi sabab yuzaga kelgan inqirozdan chiqish sharoitida yurtimizda olib borilayotgan korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, hamda global va mintaqaviy iqtisodiyotni tiklash hamda barqarorlashtirishga ta‘siri kuchli ahamiyatga egadir. Pandemiya davrida butun «jahon iqtisodiyotining makroiqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtacha 3%ga pastlagani va uning davlatlar bo‘yicha ulushi tahlil etilganda eng past ko‘rsatkichlar AQSh, Xitoy va boshqa rivojlangan davlatlarga to‘g‘ri kelayotganligi aniqlangan»<sup>11</sup>. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida korxonalarda asosiy vositalar hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiqlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalarga oid axborotlarning qamrovi va shaffofligi oshirishga yuqori ustivorlik berilmoqda.

Korxonalarda asosiy vositalarni doimiy modernizasiya qilib borish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalada O‘zbekistonda ma‘lum ishlar amalga oshirilgan, shu jumladan, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, transport-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investisiya siyosatini olib borish borasida muhim vazifalar belgilangan<sup>12</sup>. Ushbu vazifalarni bajarishda asosiy vositalarni to‘g‘ri hisobga olib boorish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA

16-sonli BHXS asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi, buxgalteriya hisobini yuritilishi haqida ma‘lumotlari haqida o‘rganishimiz mumkin.

MHXSga o‘tishning so‘nggi 15 yilida Yevropa, qolaversa, jahon tajribasiga asoslanib, quyidagi ijobiy jihatlarni kuzatish mumkin:

Birinchi, axborot shaffofligini oshirish – shaffoflik xususiyati sifatli moliyaviy axborot va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlikni ta‘minlaydi. Buning natijasida investorlar va boshqa bozor qatnashchilari asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi, hisobdorlik oshishi – bu xususiyat investorlar va kompaniya

<sup>11</sup> <https://review.uz/uz/post/koronavirus-pandemiyasining-global-iqtisodiyotga-va-ozbekistonning-iqtisodiy-hamkor-mamlakatlari-tasiri-sayti-ma-lumotlari>

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

boshqaruvchilari o'rtasidagi moliyaviy axborot yetishmovchiligini kamaytiradi. Natijada investorlar o'z sarmoyalarining samarali boshqaruvi bo'yicha to'laqonli axborotga ega bo'ladi.

Uchinchidan, iqtisodiy samaradorlik oshishi – yagona moliyaviy tildagi hisobotlarni tahlil qilish asosida, investorlar kapitalni xalqaro miqyosda yo'naltirish va risklarni kamaytirish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, bozor likvidligi yaxshilanishi va kapital sarfining pasayishi – moliyaviy axborotlarning batafsil yoritilishi va xalqaro darajada qiyoslanuvchanlik bozor likvidligini oshiradi va kompaniyalar uchun milliy va xorijiy kapital jalb etish sarflarini kamaytiradi.

Beshinchidan, kapital bozorlarining rivojlanishi va qimmatli qog'ozlar bozorlarida savdolar ko'lamining kengayishi – bo'sh kapital mablag'laridan samarali foydalanish va iqtisodiyotning turli sohalari zarur kapital bilan ta'minlanishi, kapital bozorlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, qimmatli qog'ozlar bozorining muayyan mamlakat ichida shakllanishi va savdolar ko'payishi iqtisodiy rivojlanishning jadallashtirish omili hisoblanadi. Bunda MHXS asosidagi hisobot ma'lumotlari kapital bozor ishtirokchilari uchun asosiy va ishonchli axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, xorijiy investitsiyalarning milliy bozorga kirib kelishi va investorlarni himoya qilishning takomillashishi – milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va raqobatbardoshligi, avvalambor, xorijiy investitsiyalarni jalb etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning uchun milliy bozorda xorijiy investorlarga ijobiy investitsiya muhiti yaratilishi hamda investorlar huquqlari himoyalangan bo'lishi lozim. MHXSning kapital bozor qatnashchilari tomonidan qabul qilinishi va unga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar ochiq e'lon qilinishi ushbu jarayonlarni tezroq amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Yettinchidan, moliyaviy tahlilchilar prognozlaridagi aniqlik – moliyaviy axborotning sifati va qiyosiylikini ta'minlaydigan muhit moliyaviy tahlilchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va prognozlash tahlillari sifatini oshiradi. Ushbu tahlillar kapitalning samarali boshqaruvi va kelgusida kapital jalb etilishi yoki taqsimlanishi bo'yicha to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi.

MHXSga o'tish natijasida erishiladigan amaliy afzalliklar quyidagilardan iborat:

– Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish investor uchun ham tashkilotning o'zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi;

– Moliyaviy instrumentlarni qo'llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo'nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez

qayta ko‘rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

– Aktivlar qadrsizlanishini o‘z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo‘yicha choralar ko‘rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko‘rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo‘yadi;

– Shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar – foydalanuvchilar to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to‘g‘risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

– Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko‘pchilik yirik kompaniyalar o‘zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlanma hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko‘rinmay qolishiga sabab bo‘lmoqda. MHXS bo‘yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mel’nikov I. “Buxgalterskiy uchet”. – Litres 2017. – 406 c.; Sivkov Ye. Sovremenniy buxgalterskiy uchet - 2018. - ISBN-978-5-0404-1038-5;
2. Babaev Yu.A., Petrov A.M. “Buxgalterskiy uchet:: uchebnik. - Prospekt, 2018. - ISBN: 978-5-392-28278-4;
3. M.Bonham. “Generally accepted accounting practice under IFRS”. Ernst & Young. USA, 2010.
4. A. Rizaqulov, B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”. Tarjima. T.: - 2004.
5. Jalolova D. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari” - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b.
6. Norbekov D.E., Ochilov I.K. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” fanidan o‘quv - uslubiy majmua, Toshkent -2019,
7. [www.ifrs.academy.uz](http://www.ifrs.academy.uz)
8. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
9. [www.bss.uz](http://www.bss.uz)
10. [www.tfi.uz](http://www.tfi.uz)
11. [www.norma.uz](http://www.norma.uz)
12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
13. [www.buxgalter.uz](http://www.buxgalter.uz)
14. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA XAVFSIZLIGNI TA'MINLANISHIDA INNOVATSION YONDASHUV USULLARI

**Orifxonova Nodiraxon Olimjon qizi**

Guliston davlat universiteti talabasi

[nodiraxonorifxonova@gmail.com](mailto:nodiraxonorifxonova@gmail.com)

**Hasanova Holida Olimjon qizi**

Guliston davlat universiteti talabasi

[xolidaxasanova@gmail.com](mailto:xolidaxasanova@gmail.com)

**Tashmurotov Asatullo Nasibullayevich**

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

[asatullo9999@gmail.com](mailto:asatullo9999@gmail.com)

### ANOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda butun dunyo aholisini oziq-ovqat xavfsizligini taminlashning sasiy omillari va ishlab chiqarish jarayonlarida oziq-ovqat mahsulotlarining biokimyoviy xususiyatlarini hamda ularning tarkibini aholi salomatligiga ta'siri to'g'risida to'xtalib o'tilgan

***Kalit so'zlar:** oziq-ovqat xavfsizligi, biokimyoviy, iste'mol, kasalliklar, to'g'ri ovqatlanish.*

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены основные факторы обеспечения безопасности пищевых продуктов для населения всего мира на сегодняшний день и влияние биохимических свойств пищевых продуктов и их состава на здоровье населения в процессе производственных процессов.

***Ключевые слова:** безопасность пищевых продуктов, биохимия, потребление, заболевания, правильное питание.*

Yurtimizda necha asrlar oldin yashab o'tgan buyuk tabiblar, allomalar fikriga, qolaversa hozirgi zamonaviy tibbiyot fani o'lchamlariga tayanadigan bo'lsak, inson tanasini sog'lom qiluvchi, kasalliklarga chalinishning oldini oluvchi eng muhim omillardan biri uning doimiy ravishda to'g'ri ovqatlanishi va organizm uchun sifatli va xavfsiz bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish hisoblanadi. Iste'mol qilinayotgan oziq-ovqatlar organizm uchun lozim bo'lgan mahsulotlar sifatsiz, buning ustiga xavfli bo'lar



**Annotatsiya.** Mamlakatimizda aholi soninig yildan yilga o‘sib borishi, ularning ish bilan ta‘minlanishi hamda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash va agrar sohada aholining tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish shuningdek, “Bir hudud-bir mahsulot” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish maqsad qilangan.

**Kalit so‘zlar:** “Bir hudud-bir mahsulot” tamoyili, ochiq elektron tanlov, klaster, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, preferensiyalar.

**Аннотация.** Год от года рост населения в нашей стране, обеспечение продовольственной безопасности страны и ценовой стабильности на внутреннем рынке, увеличение их доходов за счет поддержки инициатив населения в аграрной сфере а также «Единого региона»-по принципу «одного продукта» направлено на расширение производства сельскохозяйственной продукции и увеличение экспортного потенциала.

**Ключевые слова:** принцип «Одна территория-один продукт», открытый электронный конкурс, кластер, «Железная тетрадь», «Женская тетрадь», «Молодежная тетрадь», предпочтения.

**Abstract.** Increase the population of our country from year to year, their employment and food security in the country and price stability in the domestic market and support the initiatives of the population in the agricultural sector, as well as increase their income, “Based on the principle of one region-by-region product”, it is aimed at expanding the cultivation of agricultural products and increasing export potential.

**Key words:** “One territory-one product” principle, open electronic competition, cluster, “Iron notebook”, “Women’s notebook”, “Youth notebook”, preferences.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (PQ-20, 23.11.2021 y.) hamda “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab quvvatlash orqali aholi daromadlarini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (PQ-373, 10.09.2022 y.)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-20-son qaroriga muvofiq, fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi past hosilli paxta va g‘alladan qisqartirilgan va aholiga uzoq bo‘lmagan, suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan yerlardan ekin maydonlarini aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish belgilanganligi va ushbu qaror ijrosi yuzasidan yurtimiz bo‘ylab bir qator ishlar amalga oshirilayotganligi sir emas. Mamlakatimizda aholining turmush darajasini yaxshilash ularning daromadlarini oshirish maqsadida past hosilli paxta va g‘alladan bo‘shagan yerlarni aholining yashash joylaridan uzoq bo‘lmagan hududlardan ajratilishining hamda “Bir hudud — bir mahsulot” tamoyili asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish maqsad qilingan. Bu ishlarning davomi sifatida Yurtboshimizning joriy yilning 10-sentabr kuni qabul qilgan “Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PQ-373-sonli qarori qabul qilindi. Shu o‘rinda qabul qilinayotgan qarorlarning barchasi xalq manfaatini ko‘zlab ularning istiqbolini o‘ylab yengillik yaratish maqsadida qabul qilinayotganligi ushbu qaror orqali yana bir bora isbotini topmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dehqon xo‘jaliklari tashkil etish va yuritish uchun respublikamiz bo‘ylab:

2022-yilda 80 ming gektar ekin maydonlarini aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish belgilangan bo‘lsa;

2023-2025-yillarda 120 ming gektar ekin maydonlarini aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish belgilandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi paxta va g‘alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin va suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan yerlardan 2022-yil yakuniga qadar qo‘shimcha 20 ming gektar — umumiy 100 ming gektar ekin maydonlari, 2023-yilda **95 169** gektar ekin maydonlari aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga beriladi.

Qashqadaryo viloyati misolida oladigan bo‘lsak **2022-yilda 9 264 gektar yer maydoni, 2023-yilda 10 530 gektar yer maydoni** viloyatimiz bo‘yicha jami **19 794**

gektar yer maydoni fuqarolarga ochiq elektron tanlov orqali ijara huquqi asosida berilishi belgilangan.

**Qashqadaryo viloyati tumanlarida fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi paxta va g‘alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin va suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan yerlar hisobidan fuqarolarga ochiq elektron tanlov orqali ijara huquqi asosida beriladigan ekin maydonlarining hajmlari**

T/r	Tumanlar nomi	Jami yer maydoni, gektar	shundan, 2022 — 2023-yillarda	
			2022-yilda	2023-yilda
1.	<b>Koson</b>	3 554	2 113	1 441
2.	<b>Kitob</b>	1 560	620	940
3.	<b>Kasbi</b>	1 716	960	756
4.	<b>Mirishkor</b>	1 524	820	704
5.	<b>Muborak</b>	1 145	551	594
6.	<b>Nishon</b>	1 511	858	653
7.	<b>Chiroqchi</b>	612	300	312
8.	<b>Shahrisabz</b>	1 363	447	916
9.	<b>Yakkabog‘</b>	1 634	642	992
10.	<b>Qarshi</b>	1 551	409	1 142
11.	<b>Qamashi</b>	1 388	616	772
12.	<b>G‘uzor</b>	1 092	488	604
13.	<b>Dehqonobod</b>	133	33	100
14.	<b>Ko‘kdala</b>	1 011	407	604
	<b>Jami</b>	<b>19 794</b>	<b>9 264</b>	<b>10 530</b>

Bunda:

- a) ekin maydonlari fuqarolarga 30 yil muddatga:  
suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan yerlardan — Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida **0,15** gektardan **1** gektargacha, boshqa viloyatlarda **0,30** gektardan **1** gektargacha hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida **0,30** gektardan **2** gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda;  
kam suvli yerlardan — viloyatlarda **0,50** gektardan **1** gektargacha hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida **0,50** gektardan **2** gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda ijaraga beriladi;
- b) 2022-2023-yillarda dehqon xo‘jaligi yuritish maqsadida ekin maydonlarini aholiga berish uchun tashkil etiladigan ochiq elektron tanlovda 1 nafar talabgor ishtirok etgan taqdirda, istisno tariqasida, tanlov o‘tkazilgan hisoblanadi;
- v) issiqxona tarmog‘i keng rivojlangan tumanlarda dehqon ho‘jaliklariga ajratib berilgan ekin maydonlarida isitish tizimlarini o‘rnatmagan holda yengil konstruksiyali issiqxonalar qurilishiga ruxsat beriladi.

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan aholiga qulayliklar yaratish maqsadida ushbu daftardagi talabgorlar ochiq elektron tanlovda ishtirok etish uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdoridagi zakalat pul to‘lovidan ozod qilingan edi. Ularga yanada imkoniyatlar kengaytirilib endilikda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan aholiga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalari ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berilganda, ushbu shaxslar yuqoridagi daftarlardan chiqarilmaydi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalar bir yil muddatga saqlab qolinishi belgilandi. Imtiyoz va preferensiyalarning bir yillik amal qilish muddati dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Mazkur ekin maydonlarini ochiq va shaffoflikni ta‘minlagan holda dehqonchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan aholiga ajratilishi, maydonlarga sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini intensiv usulda ekishga alohida e‘tibor qaratilib mahsulot yetishtiruvchilarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik resurslar, shu jumladan urug‘lik, ko‘chat, mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalar yetkazib berish, shuningdek, zaruriy agrotexnik xizmatlar ko‘rsatish ishlarini tashkil etish va agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksport qiluvchi korxonalarini jalb qilgan holda yetishtirilgan tayyor mahsulotni xarid qilish, uni qayta ishlash, saqlash, ichki va tashqi bozorlarga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirishlari ta‘kidlab o‘tilgan.

Yer uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda ushbu qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi uch yil mobaynida normativdan (kadastr bahosiga ko‘ra) past bo‘lishida ifodalanganda, yer uchastkasidan tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda (**Yer kodeksining 36-moddasida**) yer uchastkalariga egalik qilish huquqi yoxud undan doimiy yoki muddatli foydalanish huquqi bekor qilinadi. Tuman (shahar) hokimliklarining zaxirasiga belgilangan tartibda qaytarilishi va davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi ta‘minlangandan keyin yer maydonlari lotlarga ajratilib ochiq elektron tizimga joylashtiriladi.

**Xulosa.** Yer umummilliy boyligimizdir. Uni ko‘z qorachig‘imizdek asrab, har bir qarichidan oqilona va samarali foydalanishimiz kerak. Mamlakatimiz bo‘ylab olib borilayotgan islohotlarda tenglik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida hamda aholining turmush darajasini yaxshilash hamda bozor iqtisodiyoti davrida ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bulardan ko‘zlangan maqsad har bir o‘zbek xalqining dasturxonida to‘kin sochinlik bo‘lishini ta‘minlash, o‘z qo‘limiz bilan yetishtirgan mahsulotlarni o‘zimiz uchun, kerak bo‘lsa chet elga eksport



qilish orqali daromadga ega bo'lishdir. Avvallari yerga ega bo'lsam mahsulot yetishtirsam, dehqonchilik qilsam degan ammo bunga imkoniyat bo'lmagan bo'lsa endilikda barcha imkoniyatlar eshigi yurtdoshlarimiz uchun ochib berilmoqda. Ulardan faqatgina unumli va samarali foydalanish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», T., «Adolat», 1998 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2021 yildagi «Mevasabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-20-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.09.2022 yildagi «Dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi»dagi PQ-373-sonli Qarori.
4. Qilichev Zaynobiddin, Mirzayev Jonibek, & Ibragimov O'tkir. (2022). GEODEZIK O'LCHASHLARDA TENGLASHTIRISH USULLARINI TANLASH. RESEARCH AND EDUCATION, 1(7), 107–110. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/408>
5. Mirzayev J. «Xatolar nazariyasi haqida umumiy ma'lumot» ORIENS jurnal 2022 yil 1-son 1175-1177 betlar.
6. Mirzayev J. «Qurilish - montaj ishlarida geodezik sifat nazorati» RESEARCH AND EDUCATION jurnal 2022 yil 143-146 betlar.

**KARTOGRAFIK TASVIRLASH USULLARI ORQALI MAVZULI  
XARITALARNI YARATISHDA GEOAXBOROT TIZIMLARIDAN  
FOYDALANISH. (QASHQADARYO VILOYATI QAMASHI TUMANI  
UMUMTA'LIM MUASSASALARI MISOLIDA)**

**G'ofirov Muzaffar Jumayevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

[gofirov1982@mail.ru](mailto:gofirov1982@mail.ru)

**Nabixonov Shukrullo Alisher o'g'li**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

[shukurulloxonabixonov4@gmail.com](mailto:shukurulloxonabixonov4@gmail.com)

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda jadallashgan informatsion texnologiya erishgan yutuqlardan samarali foydalangan holda Respublikamizning Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani umumta'lim muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganildi. Tuman hududidagi umumta'lim muassasalari joylashgan o'rnini va ularni boshqarish, umumta'lim muassasasi o'quvchilari va o'qituvchilari sonining o'zgarishlarini yillik hisobga olish maqsadlari uchun mavzuli kartalarini tuzish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** karta, vektor, rastr, kadastr, kartografiya, GAT, geoinformatika, astronomo-geodezik, plan, dastur, relyef.

**Аннотация:** С эффективным использованием информационных технологий были изучены данные по общеобразовательным учреждениям Камашинского района Кашкадарьинской области Республики. Даны рекомендации по роли средних учебных заведений района и их руководству, составлению их тематических карт для селей ежегодного учета изменений численности учеников и преподавателей.

**Ключевые слова:** карта, вектор, растр, кадастр, картография, ГАТ, геоинформатика, астрономо-геодезический, план, программа, рельеф.

**Annotation:** With the effective use of Information Technology, the data on secondary education institutions of the Kamashi District of Kashkadarya region of the Republic were studied. Recommendations were made on the role of secondary education institutions in the district and their management, drawing up their thematic cards for the purposes of annual accounting of changes in the number of students and teachers.

**Keywords:** map, vector, raster, cadastre, cartography, GAT, geoinformatics, astronomical and geodetic, plan, program, relief.

**Kirish.** Ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirib borishda eng avvalo ko'zlangan maqsadlarga erishishda faoliyatning strategik rejasini tuzish va mazkur reja asosida muassasaning istiqbol maqsadi va imkoniyatlarini xodimlar manfaatlari bilan uyg'unlashtirish xodimlar hamda ta'lim muassasalarning faoliyatini zamonaviy o'zgarishlarga moslashtirib borish, ta'lim innovatsiyalarini joriy etishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usullarini boshqaruv jarayoniga tadbiiq etish zarur.

Respublikamizda boshqa sohalardagi kabi yerlardan samarali foydalanishni kartalashtirishda ham informatsion texnologiya erishgan yutuqlardan samarali foydalanish imkoni vujudga kelmoqda. Ma'lumotlar to'plamini qayta ishlash, saqlash, ularni uzatish uchun qo'llanilyotgan kompyuter dasturlaridan unumli foydalanib, jahon miqyosida yaratilgan modellarni qo'llash, ularni to'liq, aniq va yuqori darajada tashkil etish dolzarb masalalar hisoblanadi.

Respublikamiz xalq xo'jalik tizimining tarkibiy qismlari, ularning xududiy joylanishini to'g'ri tashkil qilish eng avvalo respublikamiz hududidagi mavjud ishlab chiqaruvchi kuchlarning imkoniyatlarini, ularning joylashgan o'rnilarini o'rganishda ya'ni kartalashni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda mavzuli xaritalarni yaratish davlat va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni takomillashtirish, bozor munosabatlarini rivojlantirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini tadbiiq etish, fermer xujaliklarini tashkil etish, respublikamizning ko'hna tarixiy shaharlarida turizimni rivojlantirish, aholi demografiyasini o'rganish kabi masalalarini hal qilishda kartografiya sohasi oldiga ko'pgina yangi muammolarni qo'yimoqda.

**Asosiy qism.** Mavzuli kartalarning mazmuni xilma-xil bo'lib, ular har xil maqsadlar uchun yaratiladi. Ba'zi mavzuli kartalar bevosita dalada syomka asosida yaratilib, so'ng generalizasiya qilinadi va mayda masshtabli kartalar: geologiya, tuproq va o'rmon kartalari tuziladi.

Boshqa mavzuli kartalar statsionar kuzatishlar asosida (metereorologik, gidrologik, ba'zan ekologik) tuzilsa, ba'zilar statistik manbalar asosida tuziladi (iqtisodiy, ijtimoiy va aholi kartalari). Lekin mavzuli kartalar umumgeografik kartalardan farq qilib, hududning hammasini yoki biror zaruriy qismini qamrab oladi, masalan, geologik, tuproq va qishloq xo'jaligi (yer fondi va kadastr) kartalari.

Kartografiyada kartalarni tuzish uchun foydalaniladigan istalgan shakldagi (suratli-kartografik, grafikli, kesma, diagramma, jadval, raqam, matn va boshqa) hujjatlarga manbalar deyiladi. Binobarin, har qanday kartaning qadr-qimmati uning mukammalligi, aniqligi, zamonaviyligi va mazmunini ishonchliligi-har doim shu kartani tuzishga jalb etilgan manbalarning sifatiga bog'liq bo'ladi.

GAT ni hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, qanchalik tez kompyuter dasturlari rivojlanar ekan shunchalik tezlik

bilan GAT xam rivojlanib boradi. GAT amalga oshiriladigan xar qanday amaliy tahlillarni barchasi kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi. GAT orqali biz ma'lumotlarni so'rash, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni birlashtirish, ularni vizualizatsiya qilish, mavjud ma'lumotlardan yangi ma'lumot yaratish va boshqa turli tuman muammolarni hal qilish mumkin. Masalan, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish yoki xaritalar yaratish qandaydir bir yangilik emas albatta, insoniyat paydo bo'libdiki, u o'zini xayotini yaxshilash maqsadida turli tuman xaritalar yaratib kelmoqda, biroq bu kabi xaritalar yaratish va fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish GAT da amalga oshiriladigan funksiyalardan farq qiladi.

*Apparat vositalari* bu GATni amalga oshirish jarayonida kerak bo'ladigan barcha vositalardir ya'ni kompyuter, plotter, dijitalyzer, printer, GPS va boshqa vositalardir.

*Dasturlar* bu GATda fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish va xaritalar yaratish uchun kerak bo'ladigan kompyuter dasturlaridir. Fazoviy ma'lumotlarni kiritish, ularni tahlil qilish, ularni tushunarli ko'rinishda vizualizatsiya qilish, ma'lumotlar bazasini boshqarish va uni saqlash yo'llari, kerakli ma'lumotlarni tez vaqt ichida so'rash va hokazolar kompyuter dasturlarini qandayligidan dalolat beradi.

*Ma'lumotlar.* Ma'lumotlar GATning eng muxim belgilardan biri xisoblanadi desak mubolog'a bo'lmaydi. Fazoviy ma'lumotlar GATni amalga oshiruvchi tomonidan jadval ko'rinishda yoki foto surat ko'rinishida to'planishi mumkin. Yoki to'plangan fazoviy ma'lumotlar boshqa to'plangan fazoviy ma'lumotlar bilan birlashtirib tahlil qilinishi mumkin.

*Amalga oshiruvchilar.* Insonlarni ishtirokisiz har qanday GAT tasavvur qilish qiyin, qaysiki insonlar barcha bo'layotgan jarayonlarni boshqarib boradi. GAT natijalari kandy darajada sifatli bo'lishi aynan insonni bilim mahoratiga va uni ishtirokiga bevosita bog'liq.

Ma'lumotlar bazasini tashkil etishda zarur manbalar kompyuter xotirasiga kiritiladi. Agar manbalar turli masshtabda bo'lsa, bir masshtabga keltirish ishlari GAT texnologiyasi tizimining fotogrammetrik transformatsiya bosqichida amalga oshiriladi.


Kartografiyada xaritalarni tuzish uchun foydalaniladigan istalgan shakldagi hujjatlar manbalar deb ataladi. Har qanday xaritaning qadr-qimmati uning mukammalligi, aniqligi, zamonaviyligi va mazmunini ishonchligi shu xaritani tuzishga jalb etilgan manbalarning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Hozirgi geografik xaritalarning mazmuni va maqsadining har-xilligi ularni tuzish uchun jalb etiladigan manbalarning ham juda ko'p va xilma-xil bo'lishiga olib keladi.

Kartografik asarni baholash va tahlil qilish — bu ularning sifatini va turini o'rganish ular yordamida qanday masalalarni hal qilish mumkinligini aniqlashlardan

iborat, hamda xarita tuzish uchun ma'lumot sifatida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun olib boriladi. Kartografik asarlarni tahlil qilishda asosiy mezonlar bo'lib quyidagilar xizmat qiladilar:

- tanlangan masshtab va proyeksiyalarning maqsadga muvofiqligini tahlil qilish;
- xaritadan foydalanish imkoniyati qandayligini, uning legendasi ilmiy asoslanganligi va mantiqiy to'g'ri tuzilganligini tahlil qilish;
- xarita mazmuni to'laligi va zamonaviyligini tahlil qilish;
- xaritada tasvirlangan obyektlarning geometrik aniqligini tahlil qilish;
- xaritaning jihozlanish sifatini tahlil qilish;
- xarita nashrining sifati va boshqalarni tahlil qilish.



Raqamli ma'lumotlarni miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha kategoriyalarga ajratib tasvirlash

Jadvallar o'rtasidagi aloqalar shakli

Tuman hududidagi umumta'lim muassasalari soni, umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog mutaxassislar, o'quvchilar soni o'zgarishi kabi bir qator jarayonlarning dinamik va hududiy o'zgarishlari hamda ularning o'zaro bog'liqliklari zamonaviy usullar asosida o'rganildi. Kartalarini tuzish, ularning geografik asosini rasmlar orqali qayta ishlash va ajratish masalalari aerokosmik suratlar asosida yechish osonlashadi.





### ҚАМАШИ ТУМАНИ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИНИ МАВЗУЛИ ХАРИТАЛАРНИ ЯРАТИШ УЧУН ФЙДАЛАНИЛГАН МАНБАЛАР

№	Худудлар номи	Худудлар бўйича жами	Аёллар	Эркаклар
1	Қамаши шаҳар 8 та мактаб 1 та ДИУМ	566	462	104
2	Лангар худуди 17 та мактаб	557	130	427
3	Ғаллақор худуди 12 та мактаб	548	316	232
4	Наврўз худуди 3 та мактаб	104	42	62
5	Қамай худуди 9 та мактаб	336	173	163
6	Л.Мухаммадиев худуди 3 та мактаб	191	107	84
7	Тўқбой худуди 8 та мактаб	370	234	136
8	Оқрабод худуди 4 та мактаб	233	127	106
9	Қоратепа худуди 7 та мактаб	282	77	205
10	Чим худуди 5 та мактаб	255	187	68
11	Қарабоғ худуди 4 та мактаб	161	124	37
12	Охунбойбойев худуди 5 та мактаб	190	125	65
13	Чимкурғон худуди 3 та мактаб	123	89	34
14	Туман бўйича жами	3916	2193	1723


(Изоҳ) Туман бўйича жами 88 та мактаб 1 та ДИУМ

№	Худудлар номи	Худудлар бўйича жами	Қиз болалар	Ўғил бола
1	Қамаши шаҳар 8 та мактаб 1 та ДИУМ	7239	3480	3759
2	Лангар худуди 17 та мактаб	5166	2584	2582
3	Ғаллақор худуди 12 та мактаб	7226	3600	3626
4	Наврўз худуди 3 та мактаб	1238	595	643
5	Қамай худуди 9 та мактаб	3985	2048	1937
6	Л.Мухаммадиев худуди 3 та мактаб	2259	1101	1158
7	Тўқбой худуди 8 та мактаб	4008	2011	1997
8	Оқрабод худуди 4 та мактаб	2561	1239	1322
9	Қоратепа худуди 7 та мактаб	3163	1612	1551
10	Чим худуди 5 та мактаб	2264	1122	1142
11	Қарабоғ худуди 4 та мактаб	1619	848	771
12	Охунбойбойев худуди 5 та мактаб	1794	893	901
13	Чимкурғон худуди 3 та мактаб	1261	647	614
14	Туман бўйича жами	43783	21780	22003

(Изоҳ) Туман бўйича жами 88 та мактаб 1 та ДИУМ



### ҚАМАШИ ТУМАНИ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ҲУҚУҚЧИЛАРИНИ БИР ЖОЙГА ТЕГИШЛИ ДИОГРАММАЛАР УСУЛИДА ТАСВИРЛАШ ХАРИТАСИ



**ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР**

- туман чегараси
- автомобиль йўллари
- ҚФЙлар маркази
- чегарадош вилоят ва туманлар


ТУМАН БЎЙИЧА ҲУҚУҚЧИЛАР СОНИНИНГ ҲУСИШИ

Масштаб: 1:100 000

Туман бўйича ўқувчиларнинг сони 43783 та


Ўқувчиларнинг бўлиниши

- Ўғил болалар 21780 та
- Қиз болалар 22003 та



Qamashi tumanidagi umumta'lim maktablari haqida ma'lumotlarini boshqarish, kerakli tashkilotlar va shaxslarga ularni yetkazish ishlari ham muhim o'rin tutadi. Bu ma'lumotlardan samarali foydalanishda ishlar muayyan ketma-ketlikda olib boriladi.

Bunday vaqtda GAT texnologiyasida olib boriladi. Tuman umumta'lim maktablaridagi texnologik jarayonidagi barcha ishlar GAT texnologiyasida olib boriladi. Bu texnologiyani tashkil qilish uchun GAT texnologiyasiga dasturlar tanlanishi, kompyuter va monitorlar uchun talablar ishlab chiqilishi zarur.



**Xulosa.** Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari, elektron hisoblash mashina (EHM)lari inson xo'jalik faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Bunday texnologiyalarni amaliyotga joriy qilmay turib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlab bo'lmaydi.

Har bir sohani avtomatlashtirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Chunki sohaga bunday yondashuv avvalo, inson mehnatini yengillashtiradi, boshqaruvni tez va barqaror bo'lishini ta'minlaydi, davlat hamda insonlar manfaatini himoyalaydi, rivojlanishni izchil borishida imkoniyatlar yaratadi. Buni mohiyatini chuqur his etgan holda tuman umumta'lim maktablarining mavzuli xaritalarini avtomatlashgan tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu vazifani amalga oshirishda mavzuli kartalar muhim o'rin tutadi. Ular yordamida voqea va hodisalar tarqalishini ko'rgazmali ravishda ifodalanib, kartalarni boshqarishda va o'ziga xos xususiyatlarini taqqoslab, ilmiy tahlil qilish imkonini

beradi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib mazkur bitiruv malaka ishining asosiy xulosalari qo‘yidagilardan iborat:

1. Kartografik usullar yordamida yaratilgan mavzuli kartalarni yetarli darajada tahlil qilish.
2. Tuman hududidagi umumta’lim maktablarining joylashgan o‘rni va ularni boshqarish, o‘quvchi va o‘qituvchilar sonining o‘zgarishlarini yillik hisobga olish maqsadlari uchun mavzuli kartalarini tuzish.
3. Tuman hududidagi umumta’lim maktablarini boshqarish va rejalashtirish ishlarini GIS-texnologik jarayoni tarkibiy bosqichlari ishlab chiqish. GIS texnologiyasi ma’lumotlar bazasi asosida massiv yer resurslari mavzuli kartalari tizimini yaratish.

Xar bir soha avvalo mamlakat va jamiyatning rivojida o‘z o‘rniga ega. Shundan kelib chiqib tuman hududidagi umumta’lim maktablarini mavzuli kartalarini yuritish va uning negizida dasturiy ta’minotlardan foydalanib, GAT(GIS) yaratish mamlakat rivojiga katta hissa qo‘shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Safarov E.Y. Geografik Axborot Tizimlari. \_Toshkent., Universitet, 2010
2. Reymov P.R., va Xudaybergenov Y.G. Gis asoslari. Nukus., 2010
3. Mirzaliyev T., Musayev I. KartografiY. Toshkent., Ilmziyo, 2007
4. Dustnazar Omonovich Khimmataliev, Jamshid Oktyamovich Khakimov, Shakhlo Sadullaevna Sharipova, Muzaffar Farmonovich Turaev, Muzaffar Jumaevich Gofirov, Zulfiya Qayumovna Murodova. (2021). Formation of Didactic Competence of Students as a Pedagogical Problem. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 7552 –. Retrieved from <https://www.annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3409>
5. G‘ofirov, M. J., Bolibekov S.S. o‘g‘li. (2022). Muhandislik yo‘nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar. International conferences, 1(8), 78–82. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/137>
6. G‘ofirov M.J., Shukurova S.A. qizi. (2022). Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. International conferences, 1(8), 12–16 Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/121>
7. Гофиров М.Ж. Проблемы регулирования земельных реформ и земельных отношений в условиях рыночной экономики журнал Вестник науки <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-regulirovaniya-zemelnyh-reform-i-zemelnyh-otnosheniy-v-usloviyah-rynochnoy-ekonomiki>

8. MJ G'ofirov, JO Mirzayev Xatolar nazariyasi haqida umumiy ma'lumot 2022/1 Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1175-1177 OOO«Orientalrenessans»  
[https://www.oriens.uz/media/journalarticles/158\\_Gofirov\\_M.J.\\_1175-1177.pdf2022](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/158_Gofirov_M.J._1175-1177.pdf2022)
9. MJ G'ofirov, JO Mirzayev, AA Qurbonmurodov Yer tuzish va kadastr ishlari uchun geodezik o'lchovlarni matematik qayta ishlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish 2022 Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1178-1181 OOO «Oriental renessans» <https://cyberleninka.ru/article/n/yer-tuzish-va-kadastr-ishlari-uchun-geodezik-o-lchovlarni-matematik-qayta-ishlash-nazariyasi-va-amaliyotini-takomillashtirish>
10. Jumaevich Gofirov Muzaffar Integrated learning concept Online published on 22 February, 2021 <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=1&article=188>
11. Mirzayev Jonibek Oltiyevich Matematikani geodeziyada qo'llash Oriental Renaissance: Innovative, R VOLUME 1 | ISSUE 5 educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 <https://cyberleninka.ru/article/n/matematikani-geodeziyada-qollash>

## YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONIDA VUJUDGA KELGAN MUAMMOLAR

**G'ofirov Muzaffar Jumayevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

[gofirov1982@mail.ru](mailto:gofirov1982@mail.ru)

**Ulasheva Muxayyo Yusuf qizi**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

[gulbaxorkarimova1@gmail.com](mailto:gulbaxorkarimova1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Yerlar sifatining yomonlashish jarayoni, ular hosildorligining pasayishi – yerlar degradatsiyasi deyiladi. Qurg'oqchil iqlim sharoitida yerlar degradatsiyasi ko'p hollarda cho'llanish jarayoniga o'tib ketadi, bunda hosildor yer sahroga aylanadi. Yerlar degradatsiyasi - tuproqning funksiyasini o'zgartiruvchi, uning xossalari sonini va sifatini kamaytiruvchi, unumdorligini pasaytiruvchi va yo'qotuvchi jarayonlar majmuasidir.

**Kalit so'zlar:** yer, cho'llanish, degradatsiya, irrigatsiya, resurs, noqonuniy, raqamli texnologiy.

**Аннотация:** Процесс ухудшения качества земель, снижения их продуктивности называется деградацией земель. В засушливом климате деградация земель часто приводит к опустыниванию, когда плодородные земли превращаются в пустыни. Деградация земель представляет собой совокупность процессов, которые изменяют функцию почвы, снижают количество и качество ее свойств, снижают ее продуктивность и утрачивают.

**Ключевые слова:** земля, опустынивание, деградация, орошение, ресурс, незаконный, цифровые технологии.

**Abstract:** The process of deterioration of land quality, reduction of their productivity is called land degradation. In arid climates, land degradation often leads to desertification, with fertile land turning into desert. Land degradation is a set of processes that change the function of the soil, reduce the quantity and quality of its properties, reduce its productivity and lose it.

**Keywords:** land, desertification, degradation, irrigation, resource, illegal, digital technologies.



Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar bo'lgani kabi yerga, yer resurslariga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi. Respublikamizning mustaqilligigacha bo'lgan davrda ko'p yillar davomida yerdan xo'jasizlarcha, munosib bo'lmagan tarzda foydalanish jarayonlariga, mexanizmlariga barham berilib, yerga mulk sifatida qarash shakllandi. Biryuqlama xo'jalik yuritish mexanizmi ko'pgina muammolarni keltirib chiqarganligi sababli, ularni bartaraf etish maqsadiga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Markaziy Osiyoda yerdan barqaror foydalanish bo'yicha ko'plab mamlakatlar qatnashgan loyiha doirasida amalga oshirilgan tahlillarga ko'ra, yerlar sifatining buzilishi muammosining vujudga kelishi sabablari quyidagilardan iborat:

- yerlarga, jumladan, sug'orilishi qiyin bo'lgan yerlarda ham, keng miqyosdagi irrigasiyaning rivojlantirilishi va paxta yakkahokimligi tabiiy ekotizim imkoniyatlariga sezilarli darajada talafot yetkazdi, bugungi kunda mavjud texnologiyalar yer degradasiyasi oqibatlarini bartaraf etishga qodir emas. Natijada yer va suv resurslarining mahsuldorligi qisqardi;
- shu kunga qadar regional suv resurslarini boshqarish va umumiy suv havzalariga ega mamlakatlarning teng foyda ko'rishini ta'minlashning samarador mexanizmlari amaliy qo'llanmay kelinyapti;
- o'tish davridagi byudjet muammolarining ulkan suv xo'jaligi infrastrukturasi texnik xizmat ko'rsatish va modernizatsiyalashga salbiy ta'siri yerlarning unumdorligini sezilarli darajada qisqartirdi va deyarli tugab borayotgan suv resurslariga talabni orttirdi;
- kam ta'minlanganlik resurslar degradasiyasiga sababchi bo'lmoqda. Suv yetishmasligi va moliyaviy qiyinchiliklar fermerlarni o'z iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun o'z strategiyalarini qo'llashlariga majbur qilmoqda (oqava suvlardan foydalanish, yaylovlarni quritish shular jumlasiga kiradi).

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal etmay turib yer resurslaridan samarali, oqilona foydalanishni barqaror rivojlantirish mumkin emas.

Yerlar sifatining yomonlashish jarayoni, ular hosildorligining pasayishi – yerlar degradasiyasi deyiladi. Qurg'oqchil iqlim sharoitida yerlar degradasiyasi ko'p hollarda cho'llanish jarayoniga o'tib ketadi, bunda hosildor yer sahroga aylanadi.

Yerlar degradasiyasi - tuproqning funksiyasini o'zgartiruvchi, uning xossalari sonini va sifatini kamaytiruvchi, unumdorligini pasaytiruvchi va yo'qotuvchi jarayonlar majmuasidir.

Yerlar degradasiyasining quyidagi tiplari mavjud: texnologik (uzoq muddat foydalanish natijasida); eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, ifloslanish va cho'llanish.

Cho'llanish – o'zlashtirilgan unumdor sug'oriladigan yerlarning o'simliklari va unumdorligi yo'qotilgan suvsiz va xayotsiz cho'lga aylanishidir.

Yerlar degradasiya ko'zga yaqqol tashlanishi mumkin: -jarliklar yoki sho'rxok yerlar; chorva yuradigan sonsanoqsiz so'qmoqlar bilan kesilib ketgan hech narsa o'smaydigan yonbag'irlar, o'rmonlari kesilgan katta hududlar; chang bo'ronlari yoki harakatlanuvchi qumlar ko'rinishida. Yerlar degradasiya deyarli sezilmaydigan bo'lishi ham mumkin: -qaysidir uchastkalardagi o'simliklar boshqalariga qaraganda kasal yoki zaifroq ko'rinadi, yoki yaylovlar begona o'tlar bilan qoplanib ketgani uchun yaroqsiz holatga keladi

Yerlar degradasiyasi tuproq tarkibini buzadi va suv, shamol eroziyasi, botqoqlashish, sho'rlanish, shuningdek tuproqning oziq xususiyatlarining barham topishiga olib keladi. Yerlarning degradasiyasiga olib keluvi bevosita sabab yer resurslaridan muqobil foydalanmaslik, qishloq xo'jaligining beqaror faoliyati, yaylovlar va o'rmonlarga qiron keltirishdir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tashabbusi bilan yer resurslaridan foydalanishni barqaror boshqarishni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan yerlar degradasiyasiga qarshi mamlakatlararo kurash dasturi ishlab chiqilgan. Respublikamizda bu borada milliy dastur yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi yerdan foydalanish boshqaruviga jalb etilgan barcha manfaatdor tomonlarning yer resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha jiplashtirish va bu hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Mazkur maqsad amalga oshsa, ekotizimlarning barqaror va yaxlitligiga erishiladi, respublikada turmush farovonligi o'sadi. Milliy dasturda qayd etilgan yerlar degradasiyasi muammolari quyidagilarni taqozo etadi:

- mahalliy, regional va milliy miqyosda potensialni kuchaytirish;
- jamaotchilikning bu boradagi bilim va ma'lumotlarini oshirish;
- infratuzilma va bozor mexanizmlarini yaxshilash;
- mahalliy va milliy strategiyalar, rejalashtirish tizimi hamda barqaror yerdan foydalanish siyosatini integrasiyalash;
- yerlarni inventerizasiyalash, monitoringi va baholash tizimini yaxshilash;
- agrotizimlarni tiklash va haydaladigan yerlardan foydalanish amaliyotini yaxshilash;
- o'rmonlarni saqlash;
- yaylovlarni saqlash va ulardan foydalanishni boshqarish;
- tabiiy resurslardan foydalanishning integrasion boshqaruvi va suv sifatini yaxshilash;
- Orol dengizi qurishi salbiy oqibatlarini yumshatish.

Chuqur iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan "yerdan barqaror foydalanish" tushunchasi bilan yerlardan rasional va samarali foydalanish tushunchalari chambarchas bog'liq. Yerlardan rasional va samarali foydalanish tushunchalari

barqaror yerdan foydalanishning tarkibiy qismlaridan sanaladi va jamiyatning barcha sohalari o'rtasida yer resurslarini optimal taqsimlanishiga imkon beradi.

Yerdan foydalanish samaradorligi iqtisodiy kategoriyadir, lekin ushbu tushuncha faqatgina iqtisodiy va xo'jalik ma'nolari bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy, rekreasion va tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. Yerdan foydalanishning har bir jihatiga ma'lum bir turdagi: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologogik samaradorlik xosdir. Agar yerdan foydalanish faqat bitta jihat nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, unda faqat ma'lum bir turdagi samaradorlikka erishiladi. Bunda ma'lum bir turdagi samaradorlik yerdan foydalanishning boshqa jihatlariga zarar keltirish hisobiga amalga oshadi, boshqa jihatlarining talablari yerdan foydalanishning asosiy sharti sifatida qo'llanilmadi.

“Yerdan barqaror foydalanish” iqtisodiy kategoriya sifatida o'z mazmun mohiyatiga yer resurslaridan foydalanishning bozor tamoyillarini va mazkur murakkab jarayonning boshqaruvini ham o'z ichiga oladi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, “yerdan barqaror foydalanish” iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mazmunga ega bo'lib, ular uzviy bog'liqdir. Jamiyatning o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer resurslaridan foydalanishining obyektiv zarurati bir vaqtning o'zida tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatilishiga olib keladi. Bu holat bir tarafdin, yerdan xo'jalik maqsadlarida foydalanish, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishni oqilona miqdorda cheklash, ikkinchi tarafdin, iste'mol qilingan resurslarni qayta ishlab chiqarilishini taqozo etadi. “Yerdan barqaror foydalanish” mazmunan ko'p tarkibli, murakkab bo'lib, yerlardan rasional va samarador foydalanish, shuningdek, yerdan foydalanishning bozor tamoyillarini o'z ichiga oladi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining asosiy yirik tarmoqlariga moddiy negiz hisoblangan yer resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirishni ta'minlashning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir.

Hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallash holatlari uchrayotganligi bu borada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yagona nazorat tizimini joriy etish hamda vakolatli idoralar o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

## FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekistan Respublikasi "Yer kodeksi". T.: O‘zbekistan, 1998
2. Bobojonov A.R., Raxmonov K.R., G‘ofirov A.J. Yer kadastr. Darslik. T.: TIMI, 2008
3. Avezbayev S.A., Volkov S.N. "Yer tuzish iqtisodi". Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002.
4. Dustnazar Omonovich Khimmataliev, Jamshid Oktyamovich Khakimov, Shakhlo Sadullaevna Sharipova, Muzaffar Farmonovich Turaev, Muzaffar Jumaevich Gofirov, Zulfiya Qayumovna Murodova. (2021). Formation of Didactic Competence of Students as a Pedagogical Problem. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 7552 Retrieved from <https://www.annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/3409>
5. G‘ofirov, M. J., Bolibekov S.S. o‘g‘li. (2022). Muhandislik yo‘nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar. International conferences, 1(8), 78–82. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/137>
6. G‘ofirov M.J., Shukurova S.A. qizi. (2022). Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. International conferences, 1(8), 12–16 Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/121>
7. Гофиров М.Ж. Проблемы регулирования земельных реформ и земельных отношений в условиях рыночной экономики журнал Вестник науки <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-regulirovaniya-zemelnyh-reform-i-zemelnyh-otnosheniy-v-usloviyah-rynochnoy-ekonomiki>
8. MJ G‘ofirov, JO Mirzayev Xatolar nazariyasi haqida umumiy ma‘lumot 2022/1 Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1175-1177 OOO«Orientalrecessans» [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/158\\_Gofirov\\_M.J.\\_11751177.pdf2022](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/158_Gofirov_M.J._11751177.pdf2022)
9. MJ G‘ofirov, JO Mirzayev, AA Qurbonmurodov Yer tuzish va kadastr ishlari uchun geodezik o‘lchovlarni matematik qayta ishlash nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish 2022 Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1178-1181 OOO «Oriental renessans» <https://cyberleninka.ru/article/n/yer-tuzish-va-kadastr-ishlari-uchun-geodezik-o-lchovlarni-matematik-qayta-ishlash-nazariyasi-va-amaliyotini-takomillashtirish>
10. Jumaevich Gofirov Muzaffar Integrated learning concept Online published on 22February,2021 <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=1&article=188>
11. Mirzayev Jonibek Oltiyevich Matematikani geodeziyada qo‘llash Oriental Renaissance: Innovative, R VOLUME 1 | ISSUE 5 educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423 <https://cyberleninka.ru/article/n/matematikani-geodeziyada-qollash>

## KADASTR ISHLARI UCHUN GEODEZIK O'LCHOVLARNI MATEMATIK QAYTA ISHLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xo'jakeldiyev Komil Nosirovich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

[xujakeldiyevkomil@gmail.com](mailto:xujakeldiyevkomil@gmail.com)

**Mirzayev Jonibek Oltiyevich**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti o'qituvchisi

[qmii-jonibek.mirzayev@mail.ru](mailto:qmii-jonibek.mirzayev@mail.ru)

**Nosirov Jahongir Komil o'g'li**

“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

[xujakeldiyevkomil@gmail.com](mailto:xujakeldiyevkomil@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kadastr sohasidagi ishlarni qo'llab-quvvatlash uchun asos bo'lgan va foydalaniladigan geodezik koordinatalarni aniqlash va joyga o'rnatish amaliyoti haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kadastr, yer tuzish, geodezik o'lchov, tenglashtirish, eng kichik kvadratlar usuli, optimallashtirish.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о практике определения и локализации геодезических координат, которые являются основой и используются для обеспечения работ в области кадастра.

**Ключевые слова:** кадастр, межевание, геодезическая съемка, планировка, метод наименьших квадратов, оптимизация.

**Abstract:** This article describes the practice of determining and localizing geodetic coordinates, which are the basis and are used to support work in the field of cadastre.

**Keywords:** cadastre, land surveying, geodetic surveying, equalization, least squares method, optimization.

Yer tuzish va kadastr uchun ishonchli va tegishli ma'lumotlarni olishning asosiy vositalari geodeziya hisoblanadi. Geodezik o'lchovlar natijalarini an'anaviy matematik qayta ishlash va metodologiya yer tuzish va kadastr ehtiyojlari uchun natijalarni qayta



ishlash uchun mos emas. Yurtimizda yer tuzish va kadastr sohasidagi mavjud ilmiy va amaliy muammo - bu dolzarb va ishonchli ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj; foydalanish mumkin bo'lgan va yer tuzish ishlariga ta'sir ko'rsatadigan geodezik o'lchovlarni matematik qayta ishlashning nazariy va amaliy asoslari to'liq emas.

Mutaxassislar tadqiqotni quyidagilar bo'yicha olib boradilar: parametrlar ehtimollik funksiyasi va tasodifiy xatolar yuzaga kelishining maksimal ehtimoli sharti o'rtasidagi qiymatlar va bog'liqliklarni birgalikda aniqlash, takliflar ishlab chiqish; o'rtacha ko'rsatkichlar o'rtasidagi qonuniyatlar va bog'liqliklarni o'rnatish, ularni tizimlashtirish; tasodifiy xatolarning qaramlik xossalarini aniqlash va takomillashtirish, yaxlitlash xatolarini hisobga olish mezonlari va formulalarini ishlab chiqish; qo'sh o'lchovlarning har xil turlarini tahlil qilish, tizimli xatolik mezonlari, tizimli xatolikni istisno qilish usullarini ishlab chiqish va formulalarni olish, korrelyatsiya koeffitsientini rad etishni asoslash.

Geodezik o'lchashlarni tenglashtirish — karta va planlar uchun yer yuzasida geodezik o'lchashlarni bajarib, nuqtalarning geodezik koordinatalarining eng ishonchli ehtimolliq qiymatini olish va o'lchash natijalarining to'g'riligini baholash uchun bajariladigan matematik amallar ketma ketligi. [4]

**Matematik qayta ishlash.** Geodezik ma'lumotlarni qayta ishlashning umumiy jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- birlamchi qayta ishlash;
- dastlabki qayta ishlash;
- tenglashtirish hisoblari.

**Birlamchi qayta ishlashga** bevosita dalada o'lchash jarayonida bajariladigan hisoblashlar kiradi. Bu bosqichda normativ xujjatlar bilan aniqlanuvchi quyimlarga o'lchash natijalarini mosligi nazorat qilinadi. Sun'iy yo'ldosh orqali o'lchash paytida birlamchi qayta ishlash bevosita kotrollerlarda bajariladi, bunda sun'iy yo'ldoshlar soni, faktori, sun'iy yo'ldosh turkumlarini geometriyasini xarakterlovchi "siganl/shovqin" munosabati, radiosignalarning sifati, radiosignallarni qabul qilish paytida sikllarni yo'qolishini yo'qligi nazorat qilinadi.

**Dastlabki qayta ishlash** yo'lardagi, tarmoqni bir qismidagi yoki obyektidagi o'lchashlarni sifatini tez baholash maqsadida bajariladi. Bu holda aniqlikni baholash ichki o'xshashliklar, ikki marotaba o'lchashlarning fari, yopiq shakllarni bog'lanmasligi bo'yicha bajariladi. Yana bajarilgan o'lchashlarni katalogdagi qiymatlar bilan yoki oldingi ishlar natijalari bilan taqqoslash (masalan, o'lchangan burchaklarni direksion burchaklarni farqi bilan yoki elektron taxteometr bilan o'lchanganlarni yoki koordintalarni ma'lum punktlar orasidagi nazorat masofalar bilan sun'iy yo'ldosh qabul qilish qurilmalari bilan) bajariladi. Bu bosqichda bevosita o'lchash natijalari punktlar markaziga va tekislikga (masalan Gauss proyeksiyasiga)

keltiriladi, buning uchun o'lchash natijalariga normativ xujjatlar bilan aniqlanuvchi, tuzatmalar kiritiladi. Bu birga sun'iy yo'losh orqali o'lchash o'lchash natijalarini (koordinata orttirmasi, qisqa masofalar) tekislikga keltiriladi, bu taklif etilayotgan sxemani eng muhim xususiyati hisoblanadi. Sun'i yo'ldosh va uni xatoligining kovariatsion matritsallarini Gaussa-Kryuger proyeksiyasiga reduksirlash V. Astapovich taklif qilgan metodika bo'yicha amalga oshirish mumkin. Bu metodikaning mohiyati quyida yoritilgan.

Chunki, tajribadan kelib chiqqan holda, sun'iy yo'ldosh bazis chiziqlarning 10%ga yaqinini bir xilligini yechilmasligi tufayli takoran qayta aniqlash zarur, unda joriy kundagi o'lchashlarning dastlabki qayta ishlashlanishini ularni tugallagandan so'ng darrov amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

**Tenglashtirish** qidirilayotgan va o'lchangan miqdorlarni optimal baholash o'lchash natijalari va udarni funksiyalari orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish uchun ortiqcha o'lchashlar mavjud bo'lganda bajariladi. Sun'iy yo'ldosh o'lchashlarni dastlabki qayta ishlash va tenglashtirish ko'pchilik hollarda sun'iy yo'ldosh qabul qiluvchi qurilmalarni ishlab chiqaruvchi firmalar dasturlari bo'yicha bajariladi va zaruriy hollarda koordinatlarni o'zgartirish ham amalga oshiriladi. Sunyi yo'ldosh va Yer ustki o'lchashlarini yassi koordinata sistemasida tenglashtirish quyida yoritilgan.

1. Geodeziya o'lchovlarini matematik qayta ishlashning ayrim yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy asoslarning noto'g'ri va to'liq emasligi, yer tuzish va kadastr sohasidagi ishlarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkinligi aniqlandi.

2. Geodezik o'lchovlarni matematik qayta ishlash komponentlariga nazariy va amaliy qo'shimchalar ishlab chiqildi:

- eng kichik kvadratlar usulini asoslashda oddiy arifmetik o'rtacha va umumiy arifmetik o'rtacha tasodifiy xatolarning maksimal ehtimollik shartini birgalikda ishlatmaslik va R. Fisherning maksimal ehtimollik usuli aniqlandi;

- yaxlitlash koordinatalari xatolarining mezon ahamiyati belgilandi va yer maydonini hisoblashda yaxlitlash aniq koordinatalarini oldindan hisoblash formulalari ishlab chiqildi;

- Belgilangan xususiyatlarga muvofiq, teng darajada aniq va teng bo'lmagan aniq o'lchovlar natijalari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar uchta guruhda tizimlashtirildi, mos ravishda ularning guruhlarni tizimlashtirishga bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi, vazni bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar (oddiy arifmetik o'rtacha va umumiy arifmetik o'rtachadan tashqari) aniqlandi, umumiy arifmetik o'rtachadan chetlanishlarning uchinchi xossasi o'rnatildi;

- bog'liqliklar olindi va tizimli xatolikni aniqlash va turli gipotezalarni faqat bir xil darajada aniq va teng bo'lmagan aniq o'lchovlar orasidagi farqlardan

foydalangan holda tekshirish uchun Abbe mezonidan foydalangan holda usul ishlab chiqildi;

- bir xil aniq va teng bo'lmagan aniq qo'sh o'lchovlarda tizimli xatolikning faqat bitta mezondan foydalanish muhimligi isbotlangan va taklif qilingan. Ikki tomonlama o'lchovlarning barcha holatlari uchun tizimli xatolikni istisno qilish formulalari ishlab chiqilgan va tizimli xatoning ahamiyati nafaqat farqlar bilan, balki qoldiqlarni kamaytiradigan ikkilamchi o'lchovlarning o'rtacha qiymatlari bilan ham aniqlanadi.

3. Olingan nazariy va amaliy tadqiqot natijalari nafaqat kadastr va yer tuzish sohasida, balki geodezik o'lchovlardan foydalanishning istalgan yo'nalishida ham geodezik o'lchovlarni matematik qayta ishlash samaradorligini oshirdi va optimallashtirdi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Zharkymbaev B.M. Yssledovanye svoystv normyrovannykh pohreshnostey y popravok / B.M. Zharkymbaev, V.A. Ryabchyy, V.V. Ryabchyy // Marksheyderyya y nedropol'zovanye. – 2015. – № 3 (77). – S. 47-50.

